
Har bir murojaatga alohida e'tiborli bo'lish – davr talabi



Har bir murojaatga alohida e'tiborli bo'lish – davr talabi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farg'ona viloyati Sux tumani Xalq qabulxonasi mudiri tuman hokimi hamkorligida tumanning eng chekka qishloqlaridan hisoblangan G'aznov mahallasida amalga oshirilgan sayyor qabulda mahallaning Sholikor ko'chasida yashovchi Taliev R. mahallada elektr kuchlanishi pastligi, qushimcha tok transformatori o'rnatish zarurligi haqidagi muammo hal etilmayotganligi to'g'risida murojaat etgan edi. Murojaat tuman elektr tarmoqlari korxonasi mutaxassislari tomonidan o'rganildi. Shundan so'ng, mahallada bir dona TPTM-100 rusumli tok transformatori soha mutaxassislari tomonidan o'rnatilib, muammo bartaraf etildi.

Tuman prokurori bilan ikkinchi sektorning Oftobro' mahallasida amalga oshirilgan qabulda mahallaning Dasht ko'chasi 72-uyda yashovchi Boboev A.ning mahallaga keladigan asosiy yul yillar davomida ta'mirlanmasdan kelayotganligi haqidagi murojaati asosida tuman yullardan foydalanish bo'limi tomonidan 150 metr yul ta'mirlanib, 50 million so'mlik ish xajmi bajarildi.

Bugun aytish mumkin, aholi murojaati bilan ishlash va mavjud kamchilik va muammolarni ularning manfaatlarini o'zining samaralarini bermoqda. Zotan, aholi dardu muammosi bilan ishlash va ularning manfaatlarini bartaraf etilishidagi harakatlar davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bilan ham ahamiyatlidir.

